

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 25- aprel dagi
54- sonli buyrug'iga
ilova

Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

“Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom” (keyingi o'rinlarda – uslubiy nizom) qurilish faoliyatining statistik hisobini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, qurilish ishlari hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni shakllantirish tartibini belgilab beradi.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomni tayyorlashda qurilish faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Milliy hisoblar tizimi 2008- yil ta'riflari va ayrim davlatlar tajribalaridan foydalanildi.

Ushbu uslubiy nizom statistika organlari tomonidan qurilish ishlari umumiy hajmlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llaniladi:

yangi qurilish – yangi quvvatlar yaratish maqsadida yangi maydonlarda amalga oshiriladigan, asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi obyektlar (bino va inshootlar) komplekslari qurilishidir;

rekonstruksiya – ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy darajasini oshirish bo'yicha kompleks loyihalar bilan bog'liq mavjud bino va inshootlarni kengaytirmasdan, mavjud sexlar va asosiy, yordamchi hamda xizmat ko'rsatuvchi obyektlarni qayta qurish;

korxonani kengaytirish – ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida yangi qo'shimcha sexlar qurish va boshqa bo'linmalarni yaratishga mo'ljallangan investitsiyalar;

korxonani texnik va texnologik qayta qurollantirish – ishlab chiqarish maydonini kengaytirmasdan, ishlab chiqarishdagi eskirgan texnika va texnologiyalarni yangisiga almashtirishdan iborat yangilash shakli;

modernizatsiyalash – ishlab chiqarish mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning texnologik yangilanish jarayoni;

kapital ta'mirlash – bino va inshootlarning alohida eskirgan konstruktiv elementlari va qismlarini almashtirish yoki asosiy konstruksiyalarni (devorlar, poydevorlar, qavatlararo to'siqlar va b.) butunligicha o'zgartirmagan holda, ularni mustahkamroq va tejamkorroqlariga almashtirishdan iborat;

joriy ta'mirlash – bino qismlarining buzilgan joylarini tuzatish (ish qobiliyatini tiklash), ekspluatatsiya ko'rsatkichlarini saqlash va tashqi obodonlashtirish maqsadida bajariladigan qurilish ta'mirlash ishlarini o'z ichiga oladi;

boshqa pudrat ishlari – tog' ishlari uchun maydonni tayyorlash, qishloq xo'jaligi yerlarini va daraxtzorlarni drenajlash ishlarini o'z ichiga oluvchi qurish maydonini tayyorlash bo'yicha ishlar, sug'orish tizimlarini tozalash, qurilish-restavratsiya ishlari, uylarni gazlashtirish kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

2-bob. Qurilish ishlari hajmining statistik hisobi

3. Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

4. Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zstandart" agentligining 2015- yil 19- yanvardagi 05-612-sonli qarori bilan

tasdiqlangan va amalga kiritilgan “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish” faoliyati bo‘yicha “faoliyat turi bo‘yicha o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Ushbu ko‘rsatkich moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan turar joy va noturar joy binolari hamda muhandislik inshootlarini yangi obyektlari qurilishi, kapital va joriy ta‘mirlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish bo‘yicha asosiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va subpudrat shartnomalari asosida bajarilgan, MSTning 41-43-bo‘limlari xos raqamlariga mos keluvchi qurilish-montaj ishlari hamda boshqa pudrat ishlari qiymatini aks ettiradi.

5. Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘shmagan holda, to‘lov muddatidan qat‘i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo‘yicha amalga oshiriladi.

6. Pudrat shartnomasi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik hisobotda aks ettirish uchun, buyurtmachi va pudratchi tomonidan imzolangan birlamchi hisob shakli (qoidaga ko‘ra, “Bajarilgan ishlar qiymati to‘g‘risidagi hisobfaktura ma‘lumotnomasi”) asos bo‘ladi.

Xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

7. Qurilish ishlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar quyidagi asosiy ish turlari bo‘yicha guruhlanadi va ta‘riflanadi:

- a) yangi qurilish, rekonstruksiya, korxonani kengaytirish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, modernizatsiyalash;
- b) kapital ta‘mirlash;
- d) joriy ta‘mirlash;
- e) boshqa pudrat ishlari.

3- bob. Qurilish ishlari hajmini hisoblashning ma‘lumotlar manbalari

8. Qurilish ishlarining umumiy hajmi quyidagi ma‘lumotlar asosida shakllanadi:

a) rasmiy sektorda – qurilish faoliyatini amalga oshiruvchi qurilish tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bo‘yicha;

b) norasmiy sektorda – jismoniy shaxslar tomonidan pudrat tashkilotlarini jalb etmagan holda noturar-joy va turar-joy qurilishi hamda ta‘mirlanishi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari bo‘yicha.

9. Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadstrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

10. Qurilish ishlari bo'yicha asosiy statistik ma'lumotlarni shakllantirish sxemasi 1-ilovada ko'rsatilgan.

4- bob. Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish

11. Qurilish ishlarining umumiy hajmi to'g'risida yilda bir marta aniq ma'lumotlar quyidagi statistika hisoboti va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi):

a) 1 qurilish shakli (yillik) "Qurilish ishlarining bajarilishi, qurilish mashina va mexanizmlarining mavjudligi to'g'risida hisobot" – O'z kuchi bilan, xo'jalik usulidagi ishlarsiz qurilish ishlarini bajaruvchi yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan belgilangan ro'yxat asosida (kichik korxonalar va mikrofirmalardan tashqari) taqdim etadilar;

b) 1 invest (asosiy) shakli (yillik) "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot" – barcha iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, qurilish xo'jalik boshqaruv organlarini qo'shgan holda (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklardan, notijorat tashkilotlardan tashqari) taqdim etadilar;

d) 1 kb shakli (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” – barcha mulkchilik shaklidagi mikrofirma va kichik korxonalar taqdim etadilar;

e) 1 fx shakli (yillik) “Fermer xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot” – Fermer xo‘jaliklari taqdim etadilar;

f) 1 notijorat shakli (yillik) “Notijorat tashkilotning faoliyati to‘g‘risida hisobot” – Notijorat tashkilotlar (jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari (XUJMSH dan tashqari) taqdim etadilar;

g) 1 qurilish (jismoniy) shakli (yillik) “Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda qurilgan turar joylarni va noturar binolarni foydalanishga topshirish to‘g‘risida hisobot” – Davlat kadstrlari palatasining hududiy boshqarmalari taqdim etadilar;

h) 4 tj so‘rovnomasi (choraklik) “Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joyni tanlama kuzatuv so‘rovnomasi” – statistika organlari tomonidan o‘tkaziladigan kuzatuv.

12. Rasmiy sektorda yuridik shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi 1 qurilish, 1 invest (asosiy), 1 kb, 1 fx va 1 notijorat statistika hisobotlarining tegishli satrlarida aks ettirilgan qurilish ishlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yig‘indisi sifatida shakllantiriladi:

Xo‘jalik usulida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 invest (asosiy), 1 fx, 1 notijorat va 1 kb hisobotining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo‘limida aks ettirilgan buyurtmachilar tomonidan xo‘jalik usulida bajarilgan qurilish-montaj ishlariga investitsiyalaridan tashkil topadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida 1 yildan ortiq muddatda qurilish ishlarini bajarayotgan norezidentlar bo‘yicha hajm 1 invest (asosiy) hisobotida aks ettirilgan buyurtmachi-rezidentlarning norezidentlar tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlariga investitsiyalaridan tashkil topadi.

13. Shakllantirilgan hajmlar quyidagicha guruhlariga ajratiladi:

hududlar bo‘yicha – korxona va tashkilotlarning davlat ro‘yxatidan o‘tgan manzillari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy hududiy tuzilmalarini (obyektlarni) belgilash tizimiga (MHOBT) muvofiq;

mulkchilik shakllari bo‘yicha – mulkchilik shakllari tasniflagichiga (MSHT) muvofiq;

vazirlik va idoralar bo‘yicha – davlat va xo‘jalik boshqaruvi va idoralarni belgilash tizimi (DBIBT) bo‘yicha;

iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha – qurilish obyektni mo'ljallangan vazifasi bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir) ga muvofiq.

14. 1 qurilish (jismoniy) statistika hisoboti ma'lumotlari asosida jismoniy shaxslar tomonidan noturarjoy qurilishiga xarajatlar V_{chs} aniqlanadi. Shunindek, mazkur shakl ma'lumotlari asosida jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan yakka tartibdagi turar-joylar umumiy maydoni aniqlanadi. Mazkur maydon qiymatini, aniqlash uchun jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan uylarning 1 kv.m maydoni qiymatiga ko'paytiriladi. Jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan turar-joylarning 1 kv.m maydoni qiymati Statistika agentligining 2023-yil 21-sentabrdagi 63-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jalik qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom" asosida amalga oshiriladi.

$$V = S \times P, \quad (1)$$

bu yerda

V – jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan yakka tartibdagi turar-joylar umumiy maydoni;

S – jismoniy shaxs tomonidan ishga tushirilgan turar-joylarning umumiy maydoni;

P – jismoniy shaxs tomonidan ishga tushirilgan 1 kv.m turar-joyning qiymati;

15. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda turar-joylarni ta'mirlash ishlari hajmini aniqlash uchun dastlab uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga xarajatlari aniqlab olinadi. Bunda uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga xarajatlari (Ye) "Kunlik xarajatlarni hisobga olish kundaligi" ma'lumotlari asosida 1 uy xo'jaligining ta'mirlash maqsadida qurilish materiallarini sotib olishga o'rtacha xarajatlari qiymatini jami uy xo'jaliklari soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Ta'mirlash ishlari uchun mehnat resurslariga xarajatlarni hisoblash uchun dastlab qurilish faoliyatini amalga oshiruvchi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'yicha kunlik o'rtacha ish haqini quyidagi formula orqali hisoblab olinadi:

$$T = \left(\frac{F}{Ch} : n \right) / 22, \quad (2)$$

bu yerda

T – 1 ish kuni qiymati;

F – ro'yxatdagi va ro'yxatdan tashqari xodimlar ish haqi fondi;

Ch – o'rtacha ish haqi hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni;

n – hisobot davridagi oylar soni: 1-chorak uchun $n = 3$; yarim yillik uchun $n = 6$; 9 oylik uchun $n = 9$; yillik uchun $n = 12$;

22 – 1 oydagi ish kunlari o'rtacha soni.

1 ish kuni qiymatini ta'mirlash uchun talab etiladigan o'rtacha ish kunlariga ko'paytirish orqali ta'mirlash ishlari uchun mehnat resurslariga xarajatlar qiymati hisoblanadi.

16. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda turar-joylarni ta'mirlash ishlari hajmi uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga va ta'mirlash ishlariga xarajatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

17. Jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi yuqorida keltirib o'tilgan turar-joy va noturar-joy binolar qurilishi va yakka tartibda turar-joylarni ta'mirlash ishlari hajmi yig'indsidan iborat bo'ladi.

18. Rasmiy va norasmiy sektorda barcha turdagi shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi yuqorida hisoblangan hajmlar yig'indisini tashkil qiladi.

5- bob. Choraklik va oylik qurilish ishlari hajmini shakllantirish

19. Har chorakning birinchi ikki oyida, qurilish ishlari hajmi tezkor tartibda, yirik korxonalarining statistik hisobot ma'lumotlari asosida va boshqa yuridik shaxslar (qurilish faoliyatini amalga oshiruvchi kichik korxona va mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlar) qurilish ishlari hajmini hamda uy xo'jaliklari faoliyatini (har bir kategoriya bo'yicha alohida) baholash asosida hisoblanadi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmini hisoblash shartli namunasi 2-ilovada keltirilgan.

20. Notijorat tashkilotlar va fermer xo'jaliklarining **xo'jalik usulida bajarilgan** qurilish ishlarining (asosiy kapitalga investitsiyalari tarkibiga kiradi) oylik hajmlari, o'tgan yilgi aniqlik kiritilgan (yillik) ma'lumotlar asosida qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmidagi ulushlaridan kelib chiqib baholanadi.

21. Har oyda yakka tartibdagi noturar-joy obyektlari quruvchilarining qurilish ishlari hajmi (pudrat tashkilotlarini jalb qilmasdan) Davlat kadstrlari palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan taqdim qilinadigan choraklik statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida shakllanadi.

Bunda, qurilish ishlarining oylik hajmi choraklik hajmdan teng ulushlarda qabul qilinadi.

22. Har chorakda qurilish ishlarining umumiy hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) yakka tartibdagi qurilayotgan uy-joylar va jismoniy shaxslar tomonidan qurilayotgan obyektlar monitoringini yurituvchi, qurilish faoliyatini olib boruvchi yirik tashkilotlar bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik korxonalar va mikrofirmalarning hisobot davridagi tanlanma kuzatuvlariga asosan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatning "yaxshilanish" yoki "yomonlashuvi" baho ko'rsatkichlari asosida hisoblanadigan tuzatish koeffitsiyentini qo'shgan holda, ularning jami soniga yoyilgan ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Hisoblashning shartli namunasi mikrofirmalar (shu kabi kichik korxonalar) bo'yicha 3-ildavda keltirilgan;

d) xo'jalik usuli bilan qurilish ishlarini bajaruvchi notijorat tashkilotlar va fermer xo'jaliklari bo'yicha qurilish ishlari hajmini baholash;

e) xo'jalik usuli bilan amalga oshiriladigan yakka tartibdagi uy-joylarni ta'mirlash hajmini baholash.

6- bob. Qurilish ishlari o'sish sur'atini hisoblash

23. Qurilish tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish va inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda taqqoslama dinamikada qurilish ishlari hajmini o'zgartirish uchun nisbiy ko'rsatkich – qurilish ishlari o'sish sur'ati qo'llaniladi.

24. Qurilish ishlari o'sish sur'atini hisoblash taqqoslanayotgan davrlardagi qiyosiy narxlarga keltirilgan qurilish ishlari hajmlarini solishtirish yo'li bilan quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$I_q = \frac{V_t}{V_{t-1}} : I_p \times 10\,000, \quad (3)$$

bu yerda

I_q – o'sish sur'ati, %;

V_t – t hisobot davri uchun qurilish ishlarining joriy narxlardagi hajmi;

V_{t-1} – $t-1$ hisobot davridan oldingi yilning tegishli davri uchun qurilish ishlari hajmi;

I_p – indeks-deflyator, %;

q – qurilish ishlari hajmi;

p – qurilish ishlari narxi.

Qurilish ishlari hajmining indeks-deflyatori qurilish ishlari narxining o'zgarishini bildiradi va qurilish xarajatlari elementlari bo'yicha narxlar indekslarining o'rtacha solishtirilgan kattaligi va ularning qurilish ishlari qiymatidagi ulushlaridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

25. O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati yig'ma indeks-deflyator, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning qurilish ishlari hajmlarining o'rtacha umumlashtirilgan indeksini qo'llash orqali hisoblanadi.

26. Qurilish ishlarining o'sish sur'atini hisoblash namunasi 4-ilovada ko'rsatilgan.

7- bob. Yakuniy qoidalar

21. Mazkur uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan ma'lumotlar manbalari:


1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida" 2003- yil 11-iyundagi 261-son qarori.

2. Система национальных счетов – 2008//Европейская комиссия, Международный валютный фонд, Организация экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций, Всемирный банк //Нью-Йорк, 2012.

3. Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ 4.01.16-09) "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari".

“Qurilish ishlarining umumiy hajmini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom” ga
1-ILOVA

Qurilish ishlari bo'yicha statistika ma'lumotlarini shakllantirish sxemasi



“Qurilish ishlarining umumiy hajmini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom” ga
2-ILOVA

**Kichik korxona va mikrofirmalarning o'tgan yilning tegishli choragidagi
ma'lumotlari asosida qurilish ishlari oylik hajmini hisoblash namunasi
(haqiqiy narxlarda)**

Shartli namuna

	2021- yilning 1-choragi, ming so'm (tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda jami soniga yoyilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari)	2022- yilning 1-choragi, ming so'm			
		yanvar	fevral	mart	yanvar-mart, tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda jami soniga yoyilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari (4-ilova)
A	1	2	3	4	5=2+3+4
Mikrofirmalar	34479	$12746=(30639/3*124,8)$ /100	$12715=(30639/3*124,5)$ /100	$11791=37252 -$ (12746+12715)	37252
Kichik korxonalar	49003	$18115=(43546/$ $3*124,8)/100$	$18072=(43546/3*124,$ $5)/100$	$17113=53300 -$ (18115+18072)	53300
I – o'tgan yilning tegishli oyidagi qurilish-montaj ishlari indeksi deflyatori, foizda	x	124,8	124,5	124,64	x

Qurilish ishlarining umumiy hajmini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom"ga
3-ILOVA

**2022- yilning yanvar-mart holatiga kichik korxona va mikrofirmalarning chorakdagi qurilish hajmini
ularning turlari bo'yicha hisoblash uchun shartli namuna**

ming so'm

	2021- yil uchun kichik korxona va mikrofirmalarning faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % (yillik hisobotlar ma'lumotlari bo'yicha)	2021- yil uchun statistika hisobotida mahsulotni sotishdan tushgan tushumi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risidagi ma'lumot (4 kb savolnoma)			Barcha kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmi, 2022- yil yanvar-mart holatiga
		Jami kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha qurilish ishlari	Tuzatish koeffitsiyenti, marta	Aniqlangan qurilish ishlari hajmi(tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)	
A	1	2	3	4 (2x3)	5
Kichik korxonalar va mikrofirmalarning qurilish ishlari-jami	100	78062	1,16	90552	90552
shu jumladan faoliyat turi bo'yicha					
Bino va inshootlarni qurish bo'yicha ishlar (xizmatlar) (kod 41)	69,9	X	X	X	$63296 = 90552 * 69,9 / 100$
Fuqarolik ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlar qurish bo'yicha ishlar (xizmatlar) (kod 42)	6,6	X	X	X	$5976 = 90552 * 6,6 / 100$
Maxsus qurilish ishlari (kod 43)	23,5				$21280 = 90552 * 23,5 / 100$
Kichik korxona va mikrofirmalarning umumiy hajmidan-yangi qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya	Qurilish ishlarining umumiy hajmidagi ulushi (yillik hisobot ma'lumotlari bo'yicha) – 68,3 %				$61847 = 90552 * 68,3 / 100$
shu jumladan faoliyati turi bo'yicha	100				
Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha ishlar (xizmatlar) (kod 41)	71,2	X	X	X	$44035 = 61847 * 71,2 / 100$
Fuqarolik ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlar qurish bo'yicha ishlar (xizmatlar) (kod 42)	8,9	X	X	X	$5504 = 61847 * 8,9 / 100$
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari (kod 43)	19,9	X	X	X	$12308 = 61847 * 19,9 / 100$

“Qurilish ishlarining umumiy hajmini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom”ga
4-ILOVA

2022- yilning yanvar-mart holatiga qurilish ishlarining o'sish sur'atini hisoblash jadvali

Shartli namuna

Satr raqami	Ko'rsatkichlar nomi	2022- yil hisobot davri, joriy narxlarda, ming so'm	2021- yilning tegishli davriga nisbatan qurilish ishlarining indeks deflyatori (martada)	2022- yil hisobot davri, 2021- yil narxlarida, ming so'm	2021- yilning tegishli davri, joriy narxlarda, ming so'm	O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati, % da
A	B	1	2	3	4	5
1.	Qurilish ishlari jami, qator (2 + 10)	361303	1,106 =(361303 / 326642)	326642	297845	109,7
2.	Rasmiy sektor, qator (3+ 4 +6 + 9)	285423	1,110 (285423 / 257138)	257138	238594	107,8
3.	Yirik pudratchi tashkilotlar	158381	1,110	142686	133460	106,9
4.	Xo'jalik usulida	29700	1,110	26757	26280	101,8
5.	Kichik biznes, qator (6+10)	166432	1,110 (166432 / 149923)	151082	133436	113,2
6.	Kichik korxona va mikrofirmalar, qator (7+8)	90552	1,110	81578	83482	97,7
7.	Kichik korxonalar	53300	1,110	48018	49003	98,0
8.	Mikrofirmalar	37252	1,110	33560	34479	97,3
9.	Fermer xo'jaliklari	6790	1,110	6117	4669	131,0
10.	Uy xo'jaligi faoliyati, qator (11+ 12+ 13)	75880	1,092 (75880 / 69504)	69504	59251	117,3
11.	yakka tartibda uy-joy qurish (YATUJQ)	45528	1,057	43073	39772	108,3
12.	jismoniy shaxslar tomonidan noturar binolar qurish	27190	1,160	23440	16767	139,8
13.	yakka tartibda turar-joylarni ta'mirlash	3162	1,057	2991	2712	110,3
Yuridik shaxslar uchun indeks deflyatori		1,126				
YATUJQ bo'yicha indeks deflyatori		1,057				
Jismoniy shaxslar tomonidan qurilayotgan noturar joy obyektlari bo'yicha indeks deflyatori		1,160				